

G'ULOM GAVS XAYBARIYNING "OQ O'LIM" HIKOYASI SYUJETI
VA KOMPOZITSION QURILISHI

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.001>

Ibragimova Zulayho

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti Magistri
O'zbekiston, Toshkent.*

Annotatsiya Mazkur maqolada afg'on adabiyotining yirik vakillaridan biri G'ulom G'avs Xaybariyning "Oq o'lim" hikoyasi syujeti va kompozitsion qurilishi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot davomida yozuvchining ijodiy uslubi, hikoyadagi asosiy g'oya hamda obrazlar tizimi yoritiladi. Asarda muallif narkotik moddalar savdosining jamiyat hayotiga keltirgan salbiy oqibatlari, insonning bilmagan holda qilgan gunohi uchun ham javob berishi lozimligi haqidagi falsafiy fikrlarni ilgari suradi. Hikoyada urush va musofirchilik sharoitida insoniy qadriyatlarning yemirilishi, vatan sog'inchi, oila qadri va ijtimoiy adolatsizlik muammolari chuqur badiiy talqin etilgan. Tadqiqot natijasida Xaybariy ijodida real voqealarga asoslangan syujet qurilishi, psixologik tasvir va dramatik yechimning ustuvorligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Afg'on adabiyoti, G'ulom G'avs Xaybariy, "Oq o'lim", syujet, kompozitsiya, realizm, musofirchilik, urush, narkotik mavzusi, insoniy qadriyatlar, dramatik yechim.

Afg'on adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan **G'ulom G'avs Xaybariy** 1931-yilda **Nangarhor viloyatida** savdogar oilasida tug'ilgan. U Kobuldagi tijorat o'quv yurtida tahsil olgan. Yozuvchi o'z ijodida **afg'on xalqining hayoti, urush yillari qiyinchiliklari, sadoqat, oila qadri va insoniylik** masalalariga e'tibor qaratgan. Xaybariy asarlarining markazida ijtimoiy tengsizlik, urush oqibatlari va insoniy fazilatlarning yo'qolishi muammosi yotadi.

Pashto tili va adabiyotiga karta hissa qo'shgan G'ulom G'avs Xaybariy 1931-1 Nangrabor viloyatida, o'ziga to'q savdogar oilasida dunyoga kelib, Kobuldagi tijorat hilim yurtida taluul olgan. Xaybariy hikoyalarida afg'on salqining turmush tarzi, oilaparvarlik ruhi, hayot qiyinchiliklari, sadoqat ruhi yo'g'rilgan mavzularni ilgari surgan. U fuqorolar unshi boshlangan, chet ellik intervensiya davrlarida ko'proq afg'on salqi ustiga tushgan kulfatlar so'g'risida asarlar yozgan. Uning ba'zi hikoyalarida yechim singari syujet unsure kitobxonning badiiy tafakkuriga havola etilgan.

Yozuvchining qalamiga mansub پ دې س Pardes hikoyalar to'plami aynan mana shu mavzudagi hikoyalarni o'z ichiga qamrab olgan. Bunda urush, notinchlik tufayli o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan insonlarning hayoti va taqdiri yoritilgan. "Oq

o'lim" hikoyasida harm bu mavzu keng va chuqur ifodalangan. Bu hikoyada adib narkotik moddalarining jamiyatga keltiradigan zarari mavzuni qalamga olgan.

Hikoyada uch do'st Gulhamid, Sodiq va Amin o'z vatanini tark etib Pokistonga ketishadi va u yerda o'zlari bilmagan holda narkotik moddalarni tarqatuvchi kuryer sifatida ishga yollangan. Yozuvchining hikoyada ifodalagan g'oyasi Pokistonga Afg'onistondan muhojir bo'lib borgan afg'onlarning yashash sharoiti qiyinligi. Afg'onistondagi ichki urushlar ta'siri tufayli qora dori hilan shug'ullanish qanday oqibatlarga olib kelishini ifodalashdan iborat. Shu bilan birga, Xaybariy oddiy afg'on oilalari musofirchilikda sharoitning og'irligini, shaning bilan hirga politsiya hodimi bilan to'qnash kelgan oddiy afg'on oilalarining taqdiri qanday kechishini tasvirlab bergan.

Hikoyada bosh qahramon Gulhamid do'sti Sodiqning qiziga uylangan. Persoajlarning uchinchi Amin qishloq oqsoqolining o'g'li

Hikoya bunday voqea tasviri bilan boshlanadi: Bir kuni ular yashayotgan qishloqqa bosqinchilar hujum qilishadi. Uch do'st yerto'laga yashirinishadi va tun yarmida qishloqdan bosh olib chiqib ketishadi. Ulardan nega ketishayotganini so'rashsa, bosh qahramon Gulhamid ayoli bilan o'g'il farzand ko'rishmoqchi ekanligini, (afg'on urf-odatlariga ko'ra, o'g'il bu otani g'ururi hisoblanadi) shikokorlar ularga yordam bera olmagani, Peshavarda yaxshi tabib borligini va ularga yordam berishini aytib qishloqdan Pokistonga ketishadi. Peshovarda ularni politsiya hodimlari muhojirlar lageriga yuboradi va ularga soxta hujjat berishadi. Ular, ya'ni uch do'st o'zlari bilmagan holda qora dori tarqatuvchi kuryevga aylanishadi.

Hikoyaning asosiy qismida Pokiston ofitseri tomonidan Gulhamid, Sodiq, Aminga soxta hujjat berilishi hamda ularning bir joydan ikkinchi joyga qora derini olib borib berish bilan shug'ullanishi tasvirlangan. Shu maddatda uch do'st katta pull topishadi, lekin bir kuni ular

qo'lga tushib, qora docini tarqatib pull topishganini bilishadi. Xotimada uch do'st qamoqdan chiqib, yaqin insonlaridan ayrilganini bilib, o'z vatanlariga ketishga qaror qilishadi.

Hikoyaning syujetida tugundan boshlanib, ya'ni uch do'st lagerda yashayotganiga ikki ay bo'lganida ularning uyiga politsiya ofitseri kelib, ularga katta pull evaziga ish taklif qilishadi. Ular o'z oilasini boqish uchun rozi bo'lishadi. Ularning vazifasi kelishilgan odamdan paket o'ralgan narsani olib, uni Firdovsiy kinoteatrining to'g'risidagi magazinga olib borib berish edi Ular bu odamlar kimligini va paket ichida nima borligini bilishmas edi. Ular bu ishi evaziga mo'maygina daromad topishardi. Uch do'st alohida-alohida uy sotib olishadi, ularning hayotga qarashlari o'zgaradi. Lekin hir kuni Gulhamid Firdovsiy kinoteatrining oldida politsiya jipi hamda uch politsiya ofitseri bilan yuzma-yuz kelib qoladi. Ular unga bunday deyishadi: "Bizga yashil kartangni ko'rsat". U politsiyachilarga kartasini beradi, ofitser ko'rib "soxtu karta" deydi. Ofitser Gulhamidning qo'lidagi paketni

ochib, "geroia....geroin" deydi. Gulhanid oldinlari bu so'zni eshitgan, bu safar yuragi sanchidi. U hammasini tushundi va tan oldi:

"Ha, وکری قاخان بېن و هیر دېاره دملگرو زورودو او ماکی ناپوهی او تالخیری به هوا
men itki o'rtog'im bilar bu ishni bilmagan holda geroinni yetqizar edik".

Politsiya ularni sudga olib borishadi, ikki kuncan keyin sud ulami o'n yilga ozodlikdan mahrum qilish qarorini e'lon qiladi. Ular haqiqatni aytishmoqchi edi, lekin hech kim ularga quloq solmadi.

بوشوی و سدیله یوازی مور او دی زور خوقاچاق بران اصلی کی رات لونه ب اور هاد

"Hech kim bizga ishonishmaydi, narkotik sotuvchilari boshqa ed. Biz ular qo'lidagi bir vosita edik, xolos

Pelitsiyachilar ularni uch oydan so'ng, yana oldingi ishini davom etirishi sharti bilan ezod qilishadi. Gulhamidning oilasi uni ko'z yoshlar bilan kuib oladi. Gulhamidning xotini ularga Aminning totini vafot etganini aytadi

".... بی پول و او ناست خم که به سره ما شومان و خپل د هغه ور ساوه میخان منده به

Uni oldiga yugurib bordim, u farzandlari bilan yerda o'tirar va yig'lar edi".

Kunlar o'tib, ular yana e'zlari xohlamagan ishni davom etirishdi. Har kuni qora dori eqibatida yoshlar vafot etar edi. Uch do'stning bu qoradori orqali topgan pulli Aminning xotinini

marakalariga ketdi Kunlarning birida Gulhamidning qızı tomdan yiqilib o'ladi. Yana ular topgan pult

Gulhamidning qizini ko'mish maros miga sarflanadi. Shunda ular ya'ni Gulhamid, Sodiq, Amin e'z vataniga ketishga qaror qilishadi. Mana shu yerda hikoyaning yechni boshlanadi.

Yarım tunda ba uch do'st qocayotgan paytida politsiya ofitserlan bilan qurolli etishma boshlanadi. Politsiya ofitseri "agar sillarda geroin bo'lsa, bizga beringlar" deydi. O'z do'stlarini murdalarini yonida turgan Gulhamid ularga nafrat ko'zi bilan qarab deydi:

"Qotillar, nenda وحم به جه نم د سدا سو هم به وطن خپل زه او واحد لی لرم دعه ال لاندو
faqat shu bor... Oling, men o'z vatanimga ketaman. Sillarning Jahannamlaringga qaytmayman".

Culhamid o'z do'stlarini mardasini ashlab, o'z vatani, otasi va ajdodlari qabri, bor qishlog'i tomon yo'l oladi.

Asarda uch do'st — **Gulhamid, Sodiq va Amin** — urushdan qochib **Pokistonga muhojirlikka** ketadilar. Peshovarda ular politsiya ofitseri orqali **soxta hujjat** oladilar va o'zlari bilmagan holda **narkotik moddalar tashuvchilari (kuryerlar)** sifatida ishlay boshlaydilar. Ular dastlab bu ishning mohiyatidan bexabar bo'lib, oilalarini boqish uchun rozi bo'lishadi.

Syujetda ularning asta-sekin bu jinoiy faoliyatga tortilishi, moddiy farovonlik ortidan ruhiy azob va halokat sari yo'l olishi tasvirlangan. **Cho'qqi nuqtasi**

Gulhamidning hibsga olinishi va “geroin” tashiyotgani fosh bo‘lishidir. **Yechimda** esa do‘stlar vatanlariga qaytmoqchi bo‘lishadi, biroq politsiya bilan to‘qnashuvda halok bo‘ladilar. Gulhamid o‘z do‘stlari jasadi yonida turib, “Men o‘z vatanimga qaytaman, sizlarning jahannamingizga emas,” deya yurakdan chiqayotgan so‘zlar bilan hikoya yakunlanadi.

Asarning kompozitsiyasi an’anaviy tarzda quyidagicha tuzilgan:

1. **Ekspozitsiya** – uch do‘stning vatanni tark etishi.
2. **Tugun** – kuryerlik ishiga jalb etilish.
3. **Rivoj** – jinoyat jarayonining kengayishi.
4. **Cho‘qqi** – fosh bo‘lish va hibsga olinishi.
5. **Yechim** – fojiali yakun, do‘stlarning o‘limi va Gulhamidning vatan sari qaytishi.

Muallif hikoyada **realistik tasvir, dialog va psixologik holatlarga** katta e’tibor bergan. Obrazlar orqali u **insoniy poklik, sadoqat, vijdon** kabi ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etadi. Shuningdek, asarda **bilmagan holda qilgan gunoh uchun ham inson javobgarligi** falsafasi ilgari suriladi.

Xulosa qilib shani aytish kerakk. Xaybariy ushbu hikoyasi orqali narkotik bilan shug‘ullanganlar ham o‘z hayotlarida qanday qiyinchiliklarga duchor bo‘lishini ko‘rsatib bergan. Ushbu hikoya g‘oyasi original bo‘lmaydi, lekin voqealari real hayotdan, voqelikdar olib tasvirlangan. Xaybariy qahramonlarini his-tuyg‘ularini, begona yurtda bo‘lgan insonlarni bilib-bilmay qigan ishlari natijasida o‘z yaqinlaridan judo bo‘lishlarini ta’sirchan qilib tasvirlab bergan.

Shmi ham aytish lozimki, مرگ سد پښ Oqo‘lim” hikoyasida yozuvchi bu dunyoda bilib-bilmay qilgan har bir gunola uchun javob bershi, yoki qilgan gunohi uchun katta badal to‘lashga majbur bo‘lishinin ko‘rsatib bergan

G‘ulom G‘avs Xaybariy “Oq o‘lim” hikoyasi orqali **jamiyatdagi narkotik savdosi, urush, musofirlik va ijtimoiy tengsizlik muammolarini** chuqur tahlil etgan. Yozuvchi insoniy hayotning murakkab jihatlarini ochib berar ekan, o‘quvchini ezgulik, vijdon va halollik yo‘lidan borishga undaydi. Hikoya badiiy jihatdan sodda, lekin ma’nodorligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulom G‘avs Xaybariy. *Pardes*. Kobul: Davlat nashriyoti, 1986.
2. А. С. Герасимова. *Литература Афганистана на языке пушту*. Москва, 1986.
3. Номхужав Г. *Язык зашто*. Toshkent, 2018.